

**“IPAK YO‘LI” TURIZM VA MADANIY MEROS XALQARO
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.22/2025.27.12.I.01.01 RAQAMLI ILMY KENGASH**

**“IPAK YO‘LI” TURIZM VA MADANIY MEROS XALQARO
UNIVERSITETI**

MARDONOVA DILRABO SHIRINBOYEVNA

**MEHMONXONA BIZNESIDA XIZMATLAR SAMARADORLIGI VA
SIFATINI OSHIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2026

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
in economic sciences**

Mardonova Dilrabo Shirinboyevna

Mehmonxona biznesida xizmatlar samaradorligi va sifatini oshirish mexanizmini takomillashtirish 3

Мардонова Дилрабо Ширинбоевна

Совершенствование механизма повышения эффективности и качества услуг в гостиничном бизнесе..... 27

Mardonova Dilrabo Shirinboevna

Improving the mechanism for increasing the efficiency and quality of services in the hotel business..... 51

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 55

**“IPAK YO‘LI” TURIZM VA MADANIY MEROS XALQARO
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.22/2025.27.12.I.01.01 RAQAMLI ILMY KENGASH**

**“IPAK YO‘LI” TURIZM VA MADANIY MEROS XALQARO
UNIVERSITETI**

MARDONOVA DILRABO SHIRINBOYEVNA

**MEHMONXONA BIZNESIDA XIZMATLAR SAMARADORLIGI VA
SIFATINI OSHIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2026

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Iqt3163 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy Kengash veb-sahifasi (www.univ-silkroad.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portaliga (www.ziyonet.uz) manzillarida joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich**
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Usmonova Dilafruz Qarshiyevna**
iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Taniyev Ahmadjon Baxromovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: **Samarqand iqtisodiyot va servis instituti**

Dissertatsiya himoyasi «Ipak yo'li» turizm va madaniy meros xalqaro universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.22/2025.27.12.I.01.01 raqamli ilmiy Kengashning 2026-yil 05 iyun soat 11-30 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 17-uy. Tel.: (998-90) 213-89-07; faks: (998-66) 240-67-68; e-mail: dept@univ-silkroad.uz

Dissertatsiya bilan "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (49-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 17-uy. Tel.: (998-90) 213-89-07; faks: (998-66) 240-67-68; e-mail: dept@univ-silkroad.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil «___» iyun kuni tarqatildi.
(2026-yil «___» iyundagi № 7- raqamli reyestr bayonnomasi).

B.Sh.Safarov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
Kengash raisi, i.f.d., professor

X.I.Turdibekov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
Kengash ilmiy kotibi, i.f.n., dotsent

O.M.Pardayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy Kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d.,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda turizm sohasining iqtisodiy ahamiyati nihoyatda yuqori bo‘lib qolmoqda. Mehmonxonalar pandemiyadan keyingi davrda tiklanish jarayonini davom ettirar ekan, bir vaqtning o‘zida xizmat ko‘rsatish samaradorligini oshirish zarurati bilan ham yuzma-yuz kelmoqda. Shu tariqa, xizmat sifati sohaning raqobatbardoshligi va barqaror rivojlanishi bilan chambarchas bog‘liqdir. Global mehmondo‘stlik bozori rivojlanishining prognozi (CAGR) “2022-2028-yillar oralig‘ida o‘rtacha 10 % atrofida o‘sish sur‘atlarini namoyon etmoqda”¹. Bu esa soha rivojlanishining ahamiyati ortib borayotganidan dalolat beradi, chunki mehmonxonalar jarayonlarni optimallashtirish, raqamli yechimlardan foydalanish hamda ekologik standartlarni joriy etish orqali iste‘molchilarning yangi talablariga moslashishga intilmoqda. Bu borada, mehmonxona xizmatlarining sifati va samaradorligini oshirish mexanizmlarini tadqiq etish nafaqat korxonalarining raqobat strategiyasi nuqtayi nazaridan, balki turizm sohasining barqaror rivojlanishi, mintaqaviy iqtisodiyot uchun qo‘shimcha qiymat yaratish hamda sohaning ijtimoiy tomonini oshirish jihatidan vazifalarni hal etishda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahonda mehmondo‘stlik industriyasida xizmatlar samaradorligi va sifatini oshirish masalasi bo‘yicha qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada, zamonaviy mehmondo‘stlik ilmida tavsifiy yondashuvlardan tahlil va dalillarga asoslangan, empirik modellar sari siljish kuzatilmoqda. Bu jarayonda turizm va mehmondo‘stlik industriyasini rivojlantirish bo‘yicha boshqaruv va texnologik yechimlarning uzviy uyg‘unligi, ya‘ni sun‘iy intellekt va mashinali o‘rganish asosidagi ilg‘or daromadlarni boshqarish tizimlari (dinamik narx belgilash, talabni prognozlash, aksiyalar ta‘sirini tahlil qilish), mijozlar yo‘lini to‘liq raqamlashtirish (mobil check-in, to‘lov terminallari, kontaktsiz xizmatlar), real vaqt rejimidagi operatsion tahlil (mehnat unumdorligi normativlari, energiya menejmenti) hamda barqaror amaliyotlar (Green Key, EarthCheck, LEED sertifikatsiyalari) sifat standartining tahlil qilish yo‘nalishidagi ilmiy tadqiqotlar kabi masalalarga alohida e‘tibor berilmoqda.

Yangi O‘zbekistonda turizm va mehmondo‘stlik industriyasini jadal rivojlantirish, ilg‘or xalqaro standartlarga muvofiq ushbu yo‘nalishda sifat darajasini tubdan oshirish, mehmonxona biznesni samarali rivojlantirishga qaratilgan maqsadli dasturlar va chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. “Mehmonxonalarga ham subsidiya berish, mehmonxonasi bo‘lmagan 22 ta tumanda kichik otellar barpo etishga oilaviy xonalar sonidan kelib chiqib subsidiya ajratish kerak”²,...“o‘tgan sakkiz yilda iqtisodiyotning ko‘plab tarmoqlari yangidan tashkil etildi. Bu davrda 230 milliard dollar investitsiya kirib keldi, shundan 120 milliard dollardan ortig‘i xorijiy sarmoya. Infratuzilma olib borish orqali yirik

¹ World Tourism organisation. Info@unwto.org

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 3-iyundagi nutqi - “Turizm infratuzilmasini yaxshilash bo‘yicha vazifalar belgilandi”/ <https://president.uz/oz/lists/view/7282>

turistik maskanlarni ko‘paytirish lozim”³. Ushbu vazifalarning bajarilishi turizm va mehmondo‘stlik industriyasini rivojlantirishning samarali mexanizmlarini yaratish, talablarga javob beradigan iqtisodiy modellarni ishlab chiqish, baholash va monitoring usullarini takomillashtirish, hududlarda turizm infratuzilmasini shakllantirish, xalqaro tajriba asosida mijozga qaratiladigan yuqori sifatli servis tizimini joriy etish orqali mehmonxona xizmatlarini diversifikatsiya qilish, qo‘shimcha xizmatlarini tashkil etish, mehmonxona xizmatlari resurslaridan samarali foydalanish ko‘lamini hisoblash, statistik ko‘rsatkichlari va yirik xalqaro mehmonxona tarmoqlarining konsolidatsiyalangan hisobotlarini tahlil qilish, narx intizomi va portfel kengayishi fonida RevPAR (mavjud xonaga to‘g‘ri keladigan daromad) ko‘rsatkichining o‘shishi, mexanizmlarning samaradorligini aniqlash, “yashil” sertifikatlash sonining ortishi, barqarorlikni raqobatbardoshlik va sifatning asosiy drayveri sifatida institutsionallashtirish hamda ESG-investitsiyalarning (ekologik, ijtimoiy va boshqaruv samaradorligini oshirish) RevPAR va NPS (sof tavsiya indeksi) ko‘rsatkichlariga ta‘sirini o‘rganishga ekonometrik usullar yordamida mehmonxona biznesning istiqbolli parametrlarini ishlab chiqish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarni olib borishni taqozo etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”, 2024-yil 12-yanvardagi PF-9-son “Respublikaga xorijiy turistlar oqimini keskin oshirish hamda ichki turizmni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, 2019-yil 5-yanvardagi PQ-4095-son “Turizm tarmog‘ini jadal rivojlantirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-son “2019-2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2022-yil 2-dekabrda PQ-436-son “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2023-yil 26-apreldagi PQ-135-son “Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2024-yil 12-yanvardagi PQ-21-son “O‘zbekiston Respublikasida ekologik turizmni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 18-iyuldagi PQ-269-son “Turizm sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari”gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 10-martdagi 153-sonli “Davlat qo‘riqxonalarini va milliy tabiat bog‘i hududlarini kengaytirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi⁴.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 7-fevraldagi “Xizmat sohaslarini rivojlantirish chora-tadbirlari muhokama qilindi”/ <https://president.uz/uz/lists/view/7863>

⁴ <https://lex.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi.

madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mehmonxona biznesni rivojlantirishning metodologik asoslarini takomillashtirish bo‘yicha bir qator iqtisodchi olimlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, D.B.Veaver, C.M.Hall, Djinbo Szyan, Shenchao Li, Sara Dolnicar, Jafar Jafari, Pauline Sheldon, Geoffrey Wall, O.V.Pirogova, A.Yu.Pirogova, Ye.M.Maksarova, A.E.Saak, Dj.A.Michelli, L.P.Shmatko, L.V.Jolobova, G.I.Lyashko, D.S.Ushakov, V.G.Fedtsov⁵ kabi olimlar mehmonxona xizmatlar samaradorligi va sifatini oshirishning nazariy va amaliy jihatlarini chuqur o‘rganib, uning rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillarni tizimli tahlil qilgan.

Mamlakatimizda ham turizm sohasini rivojlantirishning nazariy-uslubiy masalalari bir qator iqtisodchi olimlar, jumladan, Q.X.Abduraxmonov, N.Tuxliyev, I.S.Tuxliyev, A.A.Eshtayev, B.Sh.Safarov, O.X.Xamidov, B.X.To‘raev, M.T.Aliyeva, A.N.Norchayev, N.S.Ibragimov, U.R.Matyakubov, A.T.Mirzayev, Ye.V.Golisheva, A.A.Qodirov, S.Sh.Xalilov⁶ va boshqalar tomonidan o‘rganilgan.

⁵ D.B. Weaver *Tourism Theory and the multidiscipline of tourism* // *Journal of Travel Research*. 2022. T. 62. № 1. C. 259–265., C.M. Hall, Gossling S., Scott D. *The Routledge Handbook of Tourism and Sustainability*. Routledge, 2015, Jinbo Sian, Shenchao Li, va Yi Guo “Barqaror turizm siyosati tadqiqoti sharhi”. “Barqarorlik” (Sustainability) jurnali, 2019-yil. 11(11), <https://www.mdpi.com/2071-1050/11/11/3187>; Dolnicar S. Can eco-certification standardize sustainable tourism? // *Journal of Sustainable Tourism*. 2018. Vol. 26, №10. www.researchgate.net/publication/283849335_Does_eco_certification_sell_tourism_services_Evidence; Jafari J., Ritchie J. R. B. Toward a framework for tourism education // *Annals of Tourism Research*. 1981. T. 8. № 1. C. 13–34, Sheldon P.J. Conference Report: Sustainability and Mass Destinations // *Annals of Tourism Research*. 2005. Vol. 32, No. 3. Pp. 811-813. DOI: <https://doi.org/10.1016/j.annals.2004.10.007>; Wall G. “Tourist Attractions: Points, Lines, and Areas” // *Annals of Tourism Research*. 1997. Vol. 24, No. 1. Pp. 240-243. DOI: [https://doi.org/10.1016/S0160-7383\(96\)00039-4](https://doi.org/10.1016/S0160-7383(96)00039-4); Пирогова О.В. Пирогова А.Ю. Роль устойчивого туризма в мире // *Межд. жур. приклад. и фундамент-х исследований*. - 2017, №7-2,-с.305-309. <https://applied-research.ru/ru/article/view?id=11743>; Максарова Е.М. Основные направления реализации принципов устойчивого развития в туризме//*ж. Экономика, право*, 2008, с.346. <https://e.twirpx.link/file/482976/> Saak A.E., Yakimenko M.V. *Management v industrii gostepriimstva (gostinisy i restorany)*. – SPb.: Piter, 2007. – 432 s., Kosolapov A.B. *Teoriya i praktika ekologicheskogo turizma*. – M.: 2005., Kvartalnov V.A. *Teoriya i praktika turizma*. – M.: Sovetskiy sport, 2004., Michelli Dj.A. *Rits-Carlton: zolotoy standart gostinichnogo biznesa novogo tysyachaletiya* / Djozef Michelli: per. s angl. V.S.Ivashchenko. – M.: Eksmo, 2009. – 320 s., *Turizm i gostinichnoe khozyaystvo* / Pod red. L.P.Shmatko. – Rostov n/D: Feniks; Izdatelskiy sentr «MarT», 2010. – 352 s.

⁶Абдурахмонов К.Х. Менеджмент туризма // учебное пособие. – Т.: Фан ва технология, 2014. - 332 б., Тухлиев Н., Абдуллаева Т. Экологический туризм: сущность, тенденции и стратегия развития. – O‘zbekiston milliy ensiklopediasini, 2006., Tuxliev I.S., Qudratov G‘.X., Pardaev M.Q. *Turizmni rejalashtirish* // *Darslik*. -T.: “Iqtisod-Moliya” nashriyoti, 2010. – 238 b., Eshtayev A.A. *Turizm industriyasini boshqarishning marketing strategiyasi*. // T: Fan, 2011. T. 1. № 1. 280 b., Safarov B.Sh. *Milliy turizm xizmatlar bozorini innovatsion rivojlantirishning metodologik asoslari: monografiya*. // T.: Fan va texnologiya, 2016. T. 1. № 1. 184 b., Xamidov O.X. *O‘zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirishni boshqarish mexanizmini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya*. -S.: SamISI, 2017. - 260 b., Тураев Б.Х. *Организационно-экономические механизмы регионального туризма* // Ташкент: Фан, 2009. T. 1. № 1. C. 153., Aliyeva M.T. *Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida turizm xizmatlari sohasini boshqarishning iqtisodiy jihatlari (O‘zbekiston Respublikasi misolida)* // *iqt. fan. doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati*. -Samarqand, 2019. 68 b., Norchayev A.N. *Zamonaviy turizm infratuzilmasining shakllanish va rivojlanish tendensiyalari* // *iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya*. – T.: TDIU, 2021. – 246-b., Ibragimov N.S. *O‘zbekistonda xalqaro turizmni rivojlantirishda destinatsion menejment konsepsiyasini qo‘llash* // *dis. ... i.f.n. Buxoro*, 2006. T. 1. № 1. 183 b., Matyakubov U.R. *Orolbo‘yi mintaqasida turizmni strategik rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy va metodologik yo‘nalishlarini takomillashtirish* // *DSc. diss. avtoref.* – Urganch, 2022. – 78 b., Mirzayev A.T. *O‘zbekistonda turistik-rekreatsiya faoliyatini boshqarish metodologiyasini takomillashtirish* // *DSc. diss. avtoref.* – T.:, 2021. 68 b., Гольшева Е.В. *Совершенствование организации и механизма регулирования развития туризма в рыночных условиях* // *дис. ... канд. экон. наук*. Ташкент, 2012. Qodirov A.A. *Hududlarda ekologik turizm salohiyatini barqaror rivojlantirishning uslubiy-metodologik asoslarini takomillashtirish* //

Ta'kidlash lozimki, ushbu ilmiy izlanishlarida turizm sohasi va mehmonxona xo'jaliklarini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari, ularning mamlakatimiz va hududlardagi o'ziga xos xususiyatlari, sohaga innovatsiyalarni joriy qilish va samaradorligini oshirish muammolari o'z ifodasini topgan. Mazkur tadqiqotlarda mehmonxona xo'jaligi faoliyatiga oid masalalar turizmning infratuzilmasi sifatida qarab chiqilgan. Sohada xizmatlar sifati va samaradorligini oshirish masalalari, ularni baholash va tahlil qilish yo'llari tadqiqot ob'ekti sifatida o'rganilgan bo'lishiga qaramasdan, mamlakatimiz mehmonxona biznesida xizmatlar ko'rsatish sifatini yanada oshirish maqsadida turizm klasterlarini tashkil etish hamda mehmonxona biznesi resurslaridan foydalanishning ustuvor yo'nalishlari va boshqa masalalar yetarlicha o'rganilmagan. Shu sababli, mehmonxona biznesning keng qamrovli tamoyillarini o'rganish, uning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishga ta'sirini baholash hamda sohaga innovatsion yondashuvlarni tatbiq etish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni kuchaytirish zarurati mavjud.

Shuningdek, iqtisodiy adabiyotlarda mehmonxona biznesni rivojlantirishning metodologik jihatlari yetarlicha yoritilmagan. Shu bilan birga, ushbu yo'nalishda olib boriladigan tadqiqotlarning ilmiy va amaliy ahamiyati yuqori bo'lib, bu mavzuni alohida tadqiqot ob'ekti sifatida tanlash zaruratini yuzaga keltiradi hamda uning dolzarbligini yanada oshiradi.

Dissertatsiya mavzusining tadqiqot amalga oshirilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universitetining №SRITU-18/02-"Turizm va madaniy meros sohalarini samarali rivojlantirishning innovatsion usullari" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga mos keladi.

Tadqiqotning maqsadi mehmonxona biznesida xizmatlar samaradorligi va sifatini oshirish mexanizmini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida turizm sohasini rivojlantirishning asosiy omillaridan biri bo'lgan mehmonxona biznesining o'rni va rolini nazariy jihatdan tadqiq qilish, mehmonxona biznesi samaradorligi va sifati atamasining ta'riflarini ishlab chiqish;

mehmonxona biznesi tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlarning asosiy yo'nalishlarini qamrab oladigan va ularning samaradorligini ifodalaydigan ko'rsatkichlar tizimi, tasnifi va aniqlanish yo'llarini ishlab chiqish;

mehmonxonalarda foyda benchmarkingi, mehmonxonaning moliyaviy mustaqilligi, mehmonxonalarda xizmatlar sifatlik darajasi, joylashuv qulayligi, tanilganlik darajasi, malakali xodimlar bilan ta'minlanganlik darajasi, malakali xodimlarni jalb qila olish salohiyatini birlashtirgan samaradorlikning integral ko'rsatkichini ishlab chiqish;

respublikada turizm infratuzilmasidagi mavjud muammolarni hal etish, sohada ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish va to'siqsiz turizm yo'nalishida davlat tomonidan nogironligi bo'lgan fuqarolarga qo'shimcha rag'batlantirishlar yaratish maqsadida tadbirkorlik sub'yektlari uchun subsidiya ajratishning "Inclusive room" modelini ishlab chiqish;

mehmonxonalar hamkorlik tarmog'ini tahlil qilish orqali boshqaruv qarorlarini qabul qilish samaradorligini oshirish, mehmonxonalar o'rtasida sinergetik hamkorlikni yo'lga qo'yish va shu orqali raqobatbardosh narxlarni shakllantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

"Medical Service Hospitality" dasturini amalga oshirish asosida "consulting-diagnostics-treatment-touperator-transport-medical interpreter" xizmatlarini birgalikda ko'rsatuvchi mehmonxona biznesi va tibbiy turizm klasterlari faoliyatini yo'lga qo'yish bo'yicha asoslangan takliflar ishlab chiqish;

mehmonxona xo'jalikalari iqtisodiy salohiyatining tarkibi va ularning o'zaro aloqadorligini asoslash, uning samaradorligini ifodolovchi ko'rsatkichlar tizimini aniqlash va tahlil qilish yo'llarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida O'zbekiston Respublikasi xususan, Samarqand viloyatida mehmonxona biznesida faoliyat ko'rsatayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlar olingan.

Tadqiqotning predmeti mehmonxona biznesida xizmatlar samaradorligi va sifatini oshirish mexanizmini takomillashtirish bilan bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar majmui hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada taqqoslash, tizimli tahlil, guruhlashtirish, induksiya-deduksiya, mantiqiy va taqqoslama tahlil, statistik va solishtirma tahlil, abstrakt-mantiqiy yondashuv, ekspert baholash, regression-korrelyatsion tahlil va ekonometrik modellashtirish va prognozlash kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

respublikada turizm infratuzilmasidagi mavjud muammolarni hal etish, sohada ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish va to'siqsiz turizm yo'nalishida davlat tomonidan nogironligi bo'lgan fuqarolarga qo'shimcha rag'batlantirishlar yaratish maqsadida tadbirkorlik sub'yektlari tomonidan mehmonxonaning kamida uchta xonasi nogironligi bo'lgan shaxslar aravachasidan foydalanishi uchun qulay tarzda jihozlanganda, eshitish va ko'rish imkoniyatlarini qo'llab-quvvatlovchi display hamda ovozli qurilmalar o'rnatilganda, har bir maxsus jihozlangan xona uchun yulduz toifasini olgan mehmonxonalarga 2 million so'm, yulduz toifasini olmagan mehmonxonalarga 1 million so'm miqdorida subsidiya ajratishning "Inclusive room" modelini joriy etish bo'yicha takliflar dalillangan;

mamlakatimizda tibbiy va sog'lomlashtirish turizmi imkoniyatlaridan to'liq hamda samarali foydalanish, tibbiy turizm klasterlari va mehmonxona tipidagi zamonaviy sanatoriylar faoliyatini yo'lga qo'yish, ushbu faoliyat turlari bilan shug'ullanayotgan tadbirkorlik sub'yektlarini qo'shimcha qo'llab-quvvatlash tizimini yaratish maqsadida "Medical Service Hospitality" dasturini amalga oshirish asosida "consulting-diagnostics-treatment-touperator-transport- medical

interpreter” xizmatlarini birgalikda ko‘rsatuvchi mehmonxona biznesi va tibbiy turizm klasterlari faoliyatini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha takliflar asoslangan;

xorijiy turistlarni keng jalb qilish, ularga zarur shart-sharoitlar yaratish, joylashtirish vositalari fondini ko‘paytirish, soha yo‘nalishidagi tadbirkorlik sub’yektlarini qo‘llab-quvvatlash orqali yangi ish o‘rinlarini yaratish maqsadida investorlar (tadbirkorlik sub’yektlari) tomonidan foydalanishga topshirilgan mehmonxonaning har bir xonasi uchun toifasiz mehmonxonada 10 million so‘m, 1 yulduzli toifaga ega mehmonxona uchun 15 million so‘m, 2 yulduzli toifaga ega mehmonxona uchun 20 million so‘m subsidiya ajratish asosida “Granting of a subsidy” usuli bo‘yicha takliflar asoslangan;

hududlarning turistik salohiyati va mehmonxona biznesi resurslardan samarali foydalanish ko‘rsatkichlarining prognoz hisob-kitoblari asosida 2030 yilgacha bo‘lgan o‘rta muddatli prognoz parametrlari ishlab chiqilgan.

Ishning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

turizm infratuzilmasini rivojlantirish hamda nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun to‘siqsiz xizmat ko‘rsatishni ta‘minlash maqsadida “Inclusive room” modeli ishlab chiqilgan;

mehmonxona biznesida xizmatlar samaradorligini baholashni takomillashtirish maqsadida foyda benchmarkingi, moliyaviy mustaqillik, xizmat sifati, joylashuv qulayligi, brendning tanilganligi va malakali xodimlarni jalb qilish salohiyatini birlashtiruvchi kompleks integral indikatorlar tizimi ishlab chiqilgan;

zamonaviy marketing faoliyati va xizmatlar sifatini yanada oshirish maqsadida mehmonxonalar o‘rtasidagi sinergetik hamkorlik, raqobatbardosh narx shakllanishi, xizmat sifati va iqtisodiy ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlovchi PLS-SEM modeli ishlab chiqilgan;

turizm sohasida investitsion jozibadorlikni oshirish va joylashtirish vositalari fondini kengaytirish maqsadida mehmonxonalar qurilishida foydalaniladigan subsidiya ajratishning “Granting of a subsidy” mexanizmini ishlab chiqish bo‘yicha takliflar asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tahlil jarayonida O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligining Turizm qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qumitasining rasmiy ma‘lumotlari, Birlashgan Millatlar Tashkiloti (UN), Butunjahon turizm tashkiloti (UN Tourism), Xalqaro iqtisodiy forum (WEF), Xalqaro turizm va sayohat kengashi (WTTC), Jahon banki (WB), Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti rasmiy ma‘lumotlaridan foydalanilganligi, ishda qo‘llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi va ilmiy asoslanganligi, keltirilgan xulosa, taklif va tavsiyalarining vakolatli tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy qilinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining nazariy ahamiyati mamlakatimizning turistik jozibadorligini oshirishda mehmonxona biznesi resurslaridan samarali foydalanish, xizmatlar samaradorligi va sifatini oshirish haqida to‘liq ilmiy axborotlar tizimi, viloyatlarda turizmni tashkil qilish va rivojlantirish imkoniyatlariga mos bo‘lgan usullar, tavsiyalar hamda mehmonxona

biznesida tadqiqotlarini tashkil qilish mexanizmlari bo'yicha ishlab chiqilgan tavsiyalardan joylashtirish vositalarni rivojlantirish, ularni keng targ'ib qilish dasturlarini ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati turizm sohasini rivojlantirishda mehmonxona biznesida xizmatlar samaradorligi va sifatini oshirish mexanizmini takomillashtirish orqali barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga erishish va sohaning jozibadorligini oshirish bo'yicha takliflardan O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi tasarrufidagi tuzilmalar faoliyatida bevosita foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi. Shuningdek, tadqiqot natijalari 2022–2026-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning ettita ustuvor yo'nalishi bo'yicha Taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalarni bajarish yuzasidan chora-tadbirlarni ishlab chiqishga muayyan darajada xizmat qilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Mehmonxona biznesida xizmatlar samaradorligi va sifatini oshirish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan takliflar asosida:

respublikada turizm infratuzilmasidagi mavjud muammolarni hal etish, sohada ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish va to'siqsiz turizm yo'nalishida davlat tomonidan nogironligi bo'lgan fuqarolarga qo'shimcha rag'batlantirishlar yaratish maqsadida tadbirkorlik sub'yektlari tomonidan mehmonxonaning kamida uchta xonasi nogironligi bo'lgan shaxslar aravachasidan foydalanishi uchun qulay tarzda jihozlanganda, eshitish va ko'rish imkoniyatlarini qo'llab-quvvatlovchi displey hamda ovozli qurilmalar o'rnatilganda, har bir maxsus jihozlangan xona uchun yulduz toifasini olgan mehmonxonalarga 2 million so'm, yulduz toifasini olmagan mehmonxonalarga 1 million so'm miqdorida subsidiya ajratishning "Inclusive room" modelini joriy etish bo'yicha takliflar 2024-yil 12-avgustdagi 498-son "Mehmonxona xizmatlarini ko'rsatayotgan tadbirkorlik sub'yektlariga infratuzilmani nogironligi bo'lgan shaxslar uchun moslashtirish xarajatlarining bir qismini qoplab berish tartibi to'g'risida" vaqtinchalik "Nizom"ga kiritilgan (O'zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasining 2025-yil 28-oktabrdagi 03-10-17-11095-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida mamlakatimizga inklyuziv xorijiy turistlar sonini 10 % oshishiga erishilgan;

mamlakatimizda tibbiy va sog'lomlashtirish turizmi imkoniyatlaridan to'liq hamda samarali foydalanish, tibbiy turizm klasterlari va mehmonxona tipidagi zamonaviy sanatoriylar faoliyatini yo'lga qo'yish, ushbu faoliyat turlari bilan shug'ullanayotgan tadbirkorlik sub'yektlarini qo'shimcha qo'llab-quvvatlash tizimini yaratish maqsadida "Medical Service Hospitality" dasturini amalga oshirish asosida "consulting-diagnostics-treatment-touroperator-transport- medical interpreter" xizmatlarini birgalikda ko'rsatuvchi mehmonxona biznesi va tibbiy turizm klasterlari faoliyatini yo'lga qo'yish bo'yicha asoslangan takliflar 2024-yil 23-sentabrdagi PQ-335-son "Tibbiy va sog'lomlashtirish turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari dasturi"ga kiritilgan (O'zbekiston Respublikasi

ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasining 2025-yil 28-oktabrdagi 03-10-17-11095-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklifni amaliyotga joriy yetish asosida hududlarning tibbiy turizm klasterlari faoliyatini yo'lga qo'yish orqali qushimcha resurslar salohiyatidan foydalanish samaradorligi 1,2 baravarga oshgan;

xorijiy turistlarni keng jalb qilish, ularga zarur shart-sharoitlar yaratish, joylashtirish vositalari fondini ko'paytirish, soha yo'nalishidagi tadbirkorlik sub'yektlarini qo'llab-quvvatlash orqali yangi ish o'rinlarini yaratish maqsadida investorlar (tadbirkorlik sub'yektlari) tomonidan foydalanishga topshirilgan mehmonxonaning har bir xonasi uchun toifasiz mehmonxonada 10 million so'm, 1 yulduzli toifaga ega mehmonxona uchun 15 million so'm, 2 yulduzli toifaga ega mehmonxona uchun 20 million so'm subsidiya ajratish asosida "Granting of a subsidy" usuli bo'yicha asoslangan takliflar 2024-yil 15-noyabrdagi PQ-394-son "Xorazm viloyatiga turistlar oqimini yanada oshirish hamda zarur shart-sharoitlar yaratish" dasturiga kiritilgan. (O'zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasining 2025-yil 28-oktabrdagi 03-10-17-11095-sonli ma'lumotnomasi) (O'zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasining 2025-yil 28-oktabrdagi 03-10-17-11095-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida mamlakatimiz mehmonxonalar soni 8 % oshishiga erishilgan;

hududlarning turistik salohiyati va mehmonxona biznesi resurslardan samarali foydalanish ko'rsatkichlarining prognoz hisob-kitoblari asosida 2030 yilgacha bo'lgan o'rta muddatli prognoz parametrlarini qo'llash bo'yicha amaliy tavsiyalar Turizm qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan "2025–2030 yillarda hududlarning turizm salohiyatini izchil o'rganish natijasida amalga oshirilishi rejalashtirilgan chora-tadbirlar" dasturi va "Yo'l xaritalari"ga kiritilgan (O'zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasining 2025-yil 28-oktabrdagi 03-10-17-11095-sonli ma'lumotnomasi). Natijada tegishli parametrlarni qo'llash hisobiga 2030-yilga qadar mehmonxona biznesi resurslaridan samarali foydalanish ko'rsatkichlarini 15 foizga oshirish imkoniyatlari dalillangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta, jumladan, 3 ta respublika va 2 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama qilingan va ijobiy xulosalar olingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 22 ta ilmiy ish, shundan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta, jumladan, 2 ta maqola xorijiy, 2 ta maqola Respublika jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Ishning umumiy hajmi 137 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbliligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va asosiy vazifalari, obyekti va predmeti shakllantirilgan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinganligi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tarkibiy tuzilishi haqida ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Mehmonxona biznesida xizmatlar samaradorligi va sifatini oshirishning nazariy-uslubiy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida, xizmat, samaradorlik tushunchalariga ta‘riflar ishlab chiqilgan, mehmonxona xizmatlari samaradorligini oshirishda resurslardan foydalanishning nazariy asoslari bayon etilgan va xorijiy tajribalar o‘rganilgan. Sohani tartibga soluvchi huquqiy hujjatlar, xorijiy va ichki sayyohlar soni, xizmatlar sifatini yaxshilash, mehmonxonalar sonini ko‘paytirish kabi strategik maqsadlar yoritilgan. Bugungi kunda jahon iqtisodiyotining eng yirik tarmoqlaridan biri bo‘lgan mehmonxona biznesi jadal sur‘atlar bilan rivojlanmoqda. Turistlar sonining keskin darajada ortishi, dunyo aholisining sayohat qilishga bo‘lgan istagi va talabi oshib borayotgani turizm infratuzilmasiga sezilarli darajada ta‘sir ko‘rsatmoqda.

1-jadval

O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasining maqsadli ko‘rsatkichlari, 2018-2024-yillarda⁷

Ko‘rsatkichlar nomi	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Xorijiy sayyohlar tashrifi (ming nafar)	5346.2	6748.5	1504.1	1881.3	5232.8	6626.3	8285.0
Turizm xizmatlari eksporti (mln. AQSh dollar)	1041	1313	261	422	1610	2143	3516
Ichki sayyohlar soni (ming nafar)	12489.2	14748.0	3534.1	5813.9	11435.5	20638.1	21404.7
Joylashtirish vositalari (dona)	1031	1134	1070	1330	4879	5365	6153
Mehmonxonalar(dona)	914	983	702	1035	1105	1288	1412
Turistlarga xizmat ko‘rsatuvchi subyektlar (dona)	1579	2254	2162	3883	4147	5276	7032
Turizm infratuzilmasi ob‘yektlari (dona)	2751	3668	5253	7680	11615	13033	15675
Jahon iqtisodiyotining o‘sish sur‘ati (%)	3.6	2.8	-3.1	6.0	3.2	2.8	3.0
Xorijiy valyuta kursi-O‘zbekiston so‘mi (UZS/USD)	8336	9507	10476	10838	11200	11500	12000

So‘nggi yillar davomida respublikamizda ham turistlar sonini ortib borayotganligi, sohaning sezilarli darajada rivojlanayotganligidan darak beradi.

⁷ Turizm qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasining iqtisodiy va infratuzilmaviy rivojlanishiga oid 2018-2024-yillardagi ko‘rsatkichlar 1-jadvalda keltirilgan. 1-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, dastlabki yillarda (2018-2019) xorijiy sayyohlar soni va turizm xizmatlari eksporti barqaror o‘tib, 2020-2021- yillarda pandemiya tufayli bu ko‘rsatkichlar keskin kamaygan bo‘lsada 2022-yildan boshlab tezkor tiklanish jarayoni boshlangan. 2024-yilga kelib xorijiy sayyohlar soni 8,2 million nafarga, turizm xizmatlari eksporti esa 3,5 milliard AQSh dollariga yetgani bu sohaning jadal rivojlanayotganini ko‘rsatadi. Ichki turizm ham ancha faollashgan, ya’ni sayyohlar soni 21,4 million nafarga yetgan va bu 2018-yilga nisbatan qariyb ikki baravar ko‘pdir. Shuningdek, turizm infratuzilmasi jadal rivojlangan. Mehmonxonalar soni 914 tadan 1412 taga yetgan va joylashtirish vositalari soni 6153 taga, turistlarga xizmat ko‘rsatuvchi subyektlar soni esa 7032 taga yetgani yaqqol ko‘rinib turibdi.

Mehmonxona biznesini muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun mehmonxona xizmatlarining sifati va samaradorligi ustuvor ahamiyat kasb etadi. Quyidagi jadvalda ushbu ikki tushunchaning yetakchi olimlar va manbalar tomonidan berilgan iqtisodiy talqinlari jamlangan. “Xizmat sifati” mijozlarning xizmatdan qoniqish darajasi va ularning kutgan talablariga muvofiqligi bilan bog‘liq bo‘lsa, “xizmat samaradorligi” ushbu xizmatlarni ko‘rsatish jarayonida erishilayotgan natijalarning resurslar va xarajatlarga nisbatan qanchalik yuqori ekanini ifodalaydi. 2-jadval har ikki tushunchaning ta’riflariga oid ilmiy yondashuvlarni qiyosiy ko‘rinishda keltirib, oxirgi satrda muallifning tavsifini ham ilova qiladi.

2-jadvalda keltirilgan ta’riflar mehmonxona xizmatlarining sifati va samaradorligi tushunchalarini iqtisodiy nuqtai nazardan izohlaydi. Xizmat sifati bo‘yicha ta’riflarda asosiy urg‘u – mijozlar kutganini qondirish darajasiga qaratilgan. Masalan, Parasuraman va hamkorlari xizmat sifatini mijoz kutgan talablari va olgan xizmati o‘rtasidagi farq orqali o‘lchash mumkinligini aytib, xizmat sifati subyektiv kategoriya ekanini ta’kidlaydi. Agar mijoz olgan xizmat uning kutganidan yuqori bo‘lsa, xizmat sifati yuqori baholanadi va aksincha. Bu yondashuv keyinchalik SERVQUAL modeli sifatida mashhur bo‘lib, xizmat sifatini boshqarishda keng qo‘llanilgan.

Yuqoridagi ta’rif va tahlillardan kelib chiqqan holda, mehmonxona xizmatlarining sifati – bu mehmonxona biznesining raqobatbardoshligini belgilovchi hal qiluvchi omil bo‘lib, u mijozlarning qoniqish darajasi va ularning qolishga tayyorligi orqali namoyon bo‘ladi. Mehmonxona xizmatlarining samaradorligi esa korxonaning iqtisodiy barqarorligini ta’minlovchi muhim ko‘rsatkich bo‘lib, u resurslardan foydalanish unumdorligi va moliyaviy natijadorlikni aks ettiradi.

Ikkala tushuncha o‘zaro uyg‘un holda mehmonxona biznesining muvaffaqiyatli rivojini belgilaydi: xizmat sifati yuksak bo‘lsa, u bozorda yaxshi obro‘ va sodiq mijozlar auditoriyasini shakllantiradi, bu esa o‘z navbatida korxonaning samaradorligini oshiradi. Shunday qilib, mehmonxona biznesini tashkil qilish va rivojlantirish jarayonida xizmatlar sifati va samaradorligini doimiy ravishda monitoring qilish, baholash va takomillashtirib borish – obyektiv zarurat va muvaffaqiyat omili hisoblanadi.

**“Mehmonxona xizmatlari sifati” va “mehmonxona xizmatlari samaradorligi”
tushunchalarining iqtisodiy talqinlari⁸**

Manba	Ta’rif mazmuni va iqtisodiy talqini
F. Kotler ⁹	Xizmat sifati – bu ko’rsatilayotgan xizmat xususiyatlarining mijozlar kutilmalarini qondirish va ehtiyojlarini qondirish qobiliyatidan kelib chiqadigan xususiyatlar to’plamidir. Xizmatlarning noaniqligi va bevosita iste’molchiga bog’liqligi ularning sifatini oldindan sinash yoki baholashni qiyinlashtiradi.
A. Parasuraman va boshq. ¹⁰	Xizmat sifati – mijozning kutgan talablari bilan haqiqatda olgan xizmati o’rtasidagi tafovut sifatida izohlanadi. Ko’plab tadqiqotchilar xizmat sifati mijozning kutilma va tajribasi solishtiruvi natijasida shakllanuvchi subyektiv hodisa ekanini qayd etgan.
K. Čačić ¹¹	Mehmonxona xizmatlari sifati – bu xizmatning noaniq (intangible) va aniq (tangible) jihatlari majmuasi bo’lib, ular asosida mehmonxona xodimlari va mehmonlar o’rtasida o’zaro munosabat shakllanadi va natijada mehmonlarning kutilmalari hamda ehtiyojlari qondiriladi. Xizmat ko’rsatish sifati moddiy (masalan, xona qulayligi) va nomoddiy (xodimlarning muomala darajasi) tomonlarni o’z ichiga oladi.
M. Barjaktarović ¹²	Mehmonxona xizmatlari sifati – bu xizmat ko’rsatish xususiyatlarining mehmonlar ehtiyojlarini qondirishga imkon beruvchi darajasi bo’lib, uning eng so’nggi bahosini bevosita mijoz (mehmon) belgilaydi.
A.S. Palatkin va T.E. Gvarliani ¹³	Eng kam sarf bilan eng yuqori natijaga erishish mehmonxona xizmatlari samaradorligining mezonidir. Mehmonxona sohasida iqtisodiy samaradorlik milliy (makro), hududiy va korxonada (mikro) darajalarida tahlil qilinadi.
Muallif ta’rifi	Mehmonxona xizmatlari sifati deganda, mehmonxonada taqdim etilayotgan xizmatlarning mehmonlar kutilmalari va talablariga muvofiqlik darajasi tushuniladi. Sifat darajasi qanchalik yuqori bo’lsa, mijozlarning qoniqish darajasi va qayta murojaat qilish ehtimoli shunchalik ortadi. Mehmonxona xizmatlari samaradorligi esa ko’rsatilgan xizmatlar orqali erishilgan iqtisodiy va funksional natijalarni (daromad, foyda, xizmat ko’rsatish hajmi, mijozlar soni va h.k.) ular uchun sarflangan resurs va xarajatlarga nisbatan baholovchi mezondir. Samaradorlik darajasi asosan mehmonxonaning bandlik (yotoq o’rinlarining to’ldirilish ko’rsatkichi), o’rtacha kunlik narx, bir xona hisobiga tushadigan daromad va foydalilik kabi ko’rsatkichlar orqali ifodalanadi.

Dissertatsiya ishining “O’zbekistonda mehmonxona biznesi xizmatlarining samaradorligi va sifatini oshirish holati tahlili” deb nomlangan ikkinchi bobida

⁸ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

⁹ Котлер Ф., Боуэн Дж., Мейкенз Дж. Маркетинг. Гостеприимство. Туризм : учебник для вузов / пер. с англ. – 4-е изд., перераб. и доп. – М. : ЮНИТИ, 2007. – XXVI, 1045 с.

¹⁰ Parasuraman A., Zeithaml V. A., Berry L. L. A Conceptual Model of Service Quality and Its Implications for Future Research // Journal of Marketing. – 2009. – Vol. 49, No. 4. – P. 41–50.

¹¹ Čačić K. Poslovanje hotelskih preduzeća : udžbenik. – Beograd : Univerzitet Singidunum, 2013. – 322 p.

¹² Barjaktarović D. Upravljanje kvalitetom u hotelijerstvu. – Beograd : Univerzitet Singidunum, 2013. – 278 p.

¹³ Палаткин А. С., Гварлиани Т. Е. Оценка экономической эффективности гостиничных услуг // Вестник СГУТиКД. – 2011. – № 2 (16). – С. 78–83.

O'zbekiston hududlarida mehmonxona xizmatlari sifati va samaradorligining amaliy holati tahlil qilingan.

Mehmonxona biznesining rivojlanishi mamlakatda turizm sohasini yanada ommalashtirish, shuningdek, O'zbekistonning xalqaro turizm bozoridagi raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

O'zbekistonga turistik maqsadlarda tashrif buyurgan xorijiy davlat fuqarolari soni 2018-yilda 5346,2 ming kishini tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda 8 285,0 ming kishiga yetgan. Ushbu o'sish xorijiy turistlarni segmentlash hamda ularni mehmonxona obyektlariga joylashtirish zaruratini yuzaga keltiradi. Mamlakatimizda faoliyat ko'rsatuvchi joylashtirish obyektlari soni 3-jadvalda batafsil keltirilgan.

3-jadval

Respublikada 2024-yildagi mehmonxonalar, xostellar va turoperatorlar soni¹⁴

T/r	Viloyat	Mehmonxonalar	Xostellar	Turoperatorlar
1	Andijon	22	16	44
2	Buxoro	200	85	150
3	Jizzax	34	16	12
4	Qashqadaryo	48	35	25
5	Qoraqal.Resp.	32	24	58
6	Navoiy	35	35	26
7	Namangan	30	10	66
8	Samarqand	171	60	210
9	Sirdaryo	16	17	13
10	Surxondaryo	60	12	45
11	Toshkent vil	50	55	53
12	Toshkent sh.	380	220	980
13	Farg'ona	55	30	80
14	Xorazm	75	25	85

2024-yil holatiga ko'ra respublikamizda jami 6153 ta joylashtirish vositasi faoliyat ko'rsatgan. Shundan 1412 tasi mehmonxona, 829 tasi xostel, 3 752 tasi oilaviy mehmon uylari va 160 tasi boshqa turdagi joylashtirish vositalardir¹⁵.

Hozirgi davrda xizmat ko'rsatish sifati, resurslardan oqilona foydalanish, ijtimoiy mas'uliyat hamda inklyuzivlik tamoyillarini uyg'unlashtirish turizm infratuzilmasining muhim tarkibiy jihatlaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan mehmonxonalarining samaradorligini oshirish maqsadida "Inclusive room" modeli ishlab chiqildi.

Mazkur model asosida nogironligi bo'lgan shaxslar uchun moslashtirilgan xonalarni tashkil etgan mehmonxonalarga subsidiya ajratish mexanizmi joriy etilishi, bir tomondan, ushbu ehtiyojga ega shaxslar uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, mehmonxonalarini resurslardan


¹⁴ O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

¹⁵ O'zbekiston Respublikasi Statistika milliy qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

maqsadli va samarali foydalanishni rag‘batlantiradi. Bu esa, o‘z navbatida, nafaqat rentabellikni, balki umumiy samaradorlikni ham oshirishga xizmat qiladi.

Jahon Sog‘liqni Saqlash Tashkilotining ma‘lumot berishicha dunyoda 1 milliarddan ortiq kishi, ya‘ni dunyo aholisining 15 % i nogironligi mavjud deb hisoblanar ekan¹⁶. Shulardan 80 % nogironligi bor bo‘lgan aholi rivojlanayotgan davlatlarda yashaydi. O‘zbekiston aholisining 2,14 % nogironligi mavjud shaxslar sifatida qayd etilgan¹⁷.

O‘zbekiston Respublikasida 2024-yilda nogironligi mavjud shaxslar soni 126841 tani tashkil etgan. Ushbu statistikaning 2017-2024-yillar bo‘yicha taqsimoti 1-rasmda batafsil keltirilgan.



1-rasm. O‘zbekiston Respublikasida 2017-2024-yillardagi nogironligi mavjud shaxslar sonining o‘zgarishi¹⁸.

Yuqoridagi 1-rasm ma‘lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, 2017-yil nogironligi bo‘lgan shaxslar soni 65 962 tani tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilga kelib esa, bu ko‘rsatkich 126 841 tani tashkil etmoqda. Shu sababli, nogironligi mavjud bo‘lgan shaxslar uchun mehmonxonalarda yetarli sharoitlarni yaratish muhim vazifaligicha qolmoqda.


Umuman olganda, inklyuziv turizmning aktiv iste‘molchisi bo‘lishi kutilayotgan imkoniyati cheklangan shaxslar sonining respublika miqyosida ko‘payishi albatta, xavotirli holat hisoblanadi. Shu tufayli mazkur sohada ham mehmonxonalarda ko‘rsatilayotgan xizmatlarni takomillashtirish orqali sohani rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada rivojlangan mamlakatlar tajribasidan foydalangan holda Respublikamizdagi mehmonxonalarda “Inclusive

¹⁶ <https://www.undp.org/uz/uzbekistan/press-releases>

¹⁷ O‘zbekiston Respublikasi Statistika milliy qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

¹⁸ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

room” modelini joriy qilish orqali tadbirkorlik faoliyatini jadallashtirish imkonini beradi (2-rasm).



2-rasm. Mehmonxonalarda “Inclusive room” xizmatlarini ko’rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari uchun subsidiya ajratish modeli¹⁹

Ushbu model mehmonxonalarda nogironligi mavjud shaxslar uchun xonalarni moslashtirish (zarur qurilmalar bilan jizhozlash) xarajatlarining bir qismini davlat tomonidan qoplab berish orqali tadbirkorlik subyektlariga imkoniyatlar yaratadi. Bu esa o‘z navbatida mehmonxonalar samaradorligini oshirish imkoniyatini beradi (4-jadval).

¹⁹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

“Inclusive Room” modelining: afzalliklari va imkoniyatlari²⁰

Tartib	Afzalliklar	Imkoniyatlar
1	Nogironligi bo‘lgan fuqarolarning sayohat huquqini ta’minlaydi	Hududiy mehmonxonalar xizmat sifatini oshirish orqali rivojlanadi
2	Tadbirkorlarga infratuzilmani moslashtirish xarajatlarida moliyaviy yordam bo‘ladi	Turizmga raqobatbardosh muhit shakllanadi
3	Xizmat ko‘rsatish sifati oshadi	O‘zbekistonning xalqaro inklyuziv turizm reytinglaridagi o‘rni yaxshilanadi
